

ISSN 2181-2764
2026



KELAJAK BUNYODKORLARI




СТРОИТЕЛИ БУДУЩЕГО



BUILDERS OF THE FUTURE





ANALYSIS OF PROVERBS FOUND IN THE WORKS OF SAADI SHIRAZI AND ABULQASIM FERDOWSI

Nilufar Muminova

5th-year student, Persian-English group
Higher School of Iranian and Afghan Studies
Tashkent State University of Oriental Studies
niloofaralizadeh96@gmail.com
Tashkent, Uzbekistan

D. Saidoripova

Senior Lecturer, Higher School of Iranian and Afghan Studies
Tashkent State University of Oriental Studies
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: proverb, paremiology, Saadi, Ferdowsi, Gulistan, Bustan, Shahnameh, aphorism, didactics, epic literature.

Received: 25.03.26

Accepted: 26.03.26

Published: 27.03.26

Abstract: This article analyzes the artistic and ideological features of proverbs found in the works of two great representatives of classical Eastern literature—Saadi Shirazi and Abulqasim Ferdowsi. The study comparatively examines the didactic maxims in Saadi's works "Gulistan" and "Bustan", as well as the epic-aphoristic verses in Ferdowsi's epic "Shahnameh." As a result, it is determined that Saadi's proverbs predominantly reflect moral and pedagogical essence, while Ferdowsi's proverbs are characterized by a strong national-epic nature.

SA'DIY SHEROZIY VA ABULQOSIM FIRDAVSIY ASARLARIDA UCHRAYDIGAN MAQOLLAR TAHLILI

Nilufar Mo'minova

5-kurs fors-ingliz guruhi talabasi
Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
niloofaralizadeh96@gmail.com
Toshkent, O'zbekiston

D. Saidoripova

TDSHU, "Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi katta o'qituvchisi
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Zarbulmasal, maqol, paremiologiya, Saʼdiy, Firdavsiy, Guliston, Boʻston, Shohnoma, aforizm, didaktika, epik adabiyot.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sharq mumtoz adabiyotining ikki buyuk namoyondasi – Saʼdiy Sheroziy va Abulqosim Firdavsiy asarlarida uchraydigan maqollarning badiiy va gʻoyaviy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Saʼdiy “Guliston” va “Boʻston” asarlaridagi didaktik xarakterdagi hikmatlar hamda Firdavsiyning “Shohnoma” dostonidagi epik-aforistik baytlar qiyosiy jihatdan oʻrganiladi. Natijada Saʼdiy maqollarining axloqiy-pedagogik mohiyati, Firdavsiy maqollarining esa milliy-epik xarakteri ustunligi aniqlanadi.

АНАЛИЗ ПОСЛОВИЦ, ВСТРЕЧАЮЩИХСЯ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ СААДИ ШИРАЗИ И АБУЛЬКАСИМА ФИРДОУСИ

Нилуфар Муминова

Студентка 5 курса, персидско-английская группа

Высшая школа иранистики и афганистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

niloofaralizadeh96@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

Д. Саидоринова

Старший преподаватель Высшей школы иранистики и афганистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: пословица, паремиология, Саади, Фирдоуси, Гулистан, Бустан, Шахнаме, афоризм, дидактика, эпическая литература.

Аннотация: В данной статье анализируются художественные и идейные особенности пословиц, встречающихся в произведениях двух великих представителей классической восточной литературы — Саади Ширази и Абулькаси́ма Фирдоуси. В исследовании сравнительно рассматриваются дидактические изречения в произведениях Саади «Гулистан» и «Бустан», а также эпико-афористические бейты в поэме Фирдоуси «Шахнаме». В результате установлено, что пословицы Саади преимущественно отражают нравственно-педагогическую сущность, тогда как пословицы Фирдоуси отличаются ярко выраженным национально-эпическим характером.

Kirish. Sharq mumtoz adabiyotida maqollar badiiy tafakkurning ixcham, mazmunan boy va umumlashgan shakli hisoblanadi. Ular koʻpincha aforizm sifatida paydo boʻlib, vaqt oʻtishi bilan xalq maqollariga aylanadi. Paremiologiya nuqtai nazaridan maqol – bu maʼlum bir ijtimoiy yoki axloqiy

qonuniyatni poetik formulaga aylantirgan hikmatli iboradir . Maqol fors tilida “zarbulmasal” deb yuritiladi.

ضرب المثل های فارسی عبارات کوتاهی هستند که پندها و تجربیات گران بها را با لحنی شیرین و کنایه آمیز منتقل می کنند

Fors – maqollari pand-nasihatlari va qimmatli tajribalarni shirali hamda kinoyaviy ohangda ifoda etadigan qisqa iboralardir.

Eronlik tilshunos olim Huseyn Zulfiqori o‘zining zarbulmasal haqidagi maqolasida boshqa mashhur yozuvchilarning zarbulmasal haqida bergan ta’riflariga quyidagicha izoh berib o‘tgan: “Homayining ta’riflashiga ko‘ra, zarbulmasallar mashhur va tanilgan, xalq qabul qilishiga loyiq, ma’noli ibora. U dostonidan olingan yoki dostonlarda uchramasligi ham mumkin”-, deya ta’rif bersa, Muhammad Mihaniyning fikricha, zarbulmasal qisqa va chiroyli nutqdir. Nosir Xusrav zarbulmasal haqida shunday deydi:

من این مثل که بگفتم ترا نگو مثل نیست، مثل بسنده بود هوشار مردان را

Men senga aytgan bu masalni, shunchaki masal deb bilma; masalning o‘zi hushyor odamlar uchun kifoya qiladi.

Bu jumla shuni anglatadiki, masallar – faqat hushyor va tafakkurli odamlar yetarli saboq beradi va qo‘shimcha tushuntirishlarga hojat yo‘q. Muallif “senga masal deb aytma” deb aytishi bilan shuni ta’kidlaydi: masalning ichidagi hikmat o‘zi kifoya qiladi.

Sa’diy va Firdavsiy asarlari ana shunday maqollarga nihoyatda boy. Biroq ularning funksional va g‘oyaviy yo‘nalishlari bir-biridan farq qiladi. Mazkur maqolada shu farqlar ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Sa’diy asarlarida maqollar ko‘pincha hikoyat yakunida umumlashtiruvchi xulosa vazifasini bajaradi. Sa’diy Sheroziyning Guliston asarida kelgan:

[In rah ke to miravi be Torkestān ast] misrasi asrlar davomida xalq tafakkurida hikmat darajasiga ko‘tarilgan iboralardan biridir. Bu misra’ning to‘liq ko‘rinishi shunday:

ترسم نرسی تو به کعبه، ای اعرابی
کاین ره که تو می روی به ترکستان است
ای هنرها گرفته بر کف دست
عیبها بر گرفته زیر بغل
تا چه خواهی خریدن ای مغرور
روز درماندگی به سیم دغل

Qo‘rqamanki, Ka’baga yetolmaysan, ey sahroyi yo‘lovchi,

Zero tutgan yo‘ling seni Turkiston sari boshlab bormoqda.

Ey amallarini kaftida tutgan,

Ayblarini qo‘ltig‘i ostiga yashirgan,

Ey mag‘rur kishi! nima ham sotib olarding?

Ul ojizlik kunida, bu soxta kumushlaring ila.

Bu yerda Ka'ba - maqsad, haqiqat va ilohiy visol timsoli. Turkiston esa - maqsaddan yiroq, zid yo'nalish ramzi. Bunda niyat muqaddas bo'lishi yetarli emas, agar yo'l noto'g'ri tanlansa, qadamlar seni maqsadga emas, undan uzoqqa olib ketadi. Bu ogohlantirish zohiriy taqvo bilan botiniy riyokorlik o'rtasidagi ziddiyatni ham ochadi: yo'l - amal, manzil - natija. Amal egri bo'lsa, manzil ham o'zgaradi. Dostonda shundan iboratki:

Bir zohid podshohning mehmoni bo'ladi. Ovqatga o'tirganlarida, u odatdagidan kamroq yedi, namozga turganlarida esa odatdagidan ortiqroq ibodat qildi — toki odamlar uning solihligiga ko'proq gumon (ya'ni yaxshi fikr) qilsinlar. U o'z uyiga qaytgach, biror narsa tanovul qilmoq uchun dasturxon yozishlarini so'radi. Uning dono bir o'g'li bor edi. U dedi:

- Ey ota, podshoh majlisida ovqat yemading-mi?

Zohid javob berdi:

- Ularning ko'z o'ngida menga naf beradigan darajada yemadim.

O'g'li dedi:

- Unday bo'lsa, namozni ham qazo qil, chunki u yerda ham naf beradigan bir ish qilmading.

Tashqi jihatdan sodda va ravon tuyulgan bu jumla botinan chuqur ma'naviy-falsafiy mazmunni o'zida mujassam etadi.

Mazkur misrada shoir "yo'l" timsoli orqali insonning hayotiy tanlovlarini ifodalaydi. Yo'l — bu shunchaki harakat emas, balki maqsad sari yo'naltirilgan ongli qadamdir. "Turkiston" esa geografik makon bo'lishdan ko'ra ko'proq ramziy ma'noga ega: u muayyan oqibat, muqarrar manzil timsolidir. Ya'ni inson qaysi yo'lni tanlasa, o'sha yo'l uni o'z natijasiga olib boradi. Yo'lni tanlash ixtiyoriy, ammo manzil — tanlovning tabiiy hosilasidir. Bu misraning xalq orasida keng qo'llanishi ham bejiz emas. U kundalik hayotda nasihat, ogohlantirish va pand sifatida ishlatiladi. Chunki u zamon va makon chegaralaridan oshib, insoniy tajribaning umumiy qonuniyatini ifodalaydi: inson o'z yo'lining muallifidir.

Ushbu maqolni Eron adabiyotshunosi Behruz Mahmudi Baxtiyori shunday sharhlaydi:

کاین ره که تو می روی، به ترکستان است) :کنایه از (راه اشتباه و نادرست؛ یعنی با نیت نادرست به هدف خود نمیرسی.

Sen ketayotgan yo'l Turkistonga olib boradi: (kinoya tarzida) buy yo'l noto'g'ri va xato, noto'g'ri niyat va noto'g'ri usul bilan maqsadga yetib bo'lmaydi.

کمال همنشین در من اثر کرد

[kamāl-e hamnešin bar man asar kard]

گلی خوشبوی در حمام روزی

رسید از دست محبوبی به دستم

بدو گفتم که مشکى یا عیبى

که از بوی دلاویز تو مستم
 بگفتا من گلی ناچیز بودم
 و لیکن مدتی با گل نشستم
 کمال همنشین در من اثر کرد
 وگر نه من همان خاکم که هستم

Bir kuni hammomda xushbo‘y bir gil

Sevgilim qo‘lidan menga yetdi,

Dedim unga:

— Sen mushkmisan yo anbar,

Ki sening dilbarona hidingdan mastdirman?!

U dedi:

— Men aslida oddiy bir gil edim,

Ammo bir muddat gul bilan yonma-yon o‘tirdim.

Yaxshi hamrohning kamoli menga ta’sir qildi,

Bo‘lmasa men o‘sha oddiy tuproqning o‘ziman.

Mazkur maqol: کمال همنشین در من اثر کرد Saadi Shirazining Gulistan asarida keltirilgan hikmatli bayt tarkibiga kiradi va inson shaxsining shakllanishida ijtimoiy muhitning o‘rni masalasini badiiy-falsafiy asosda yoritadi. Ushbu baytda axloqiy kamolotning individual emas, balki ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog‘liqligi ta’kidlanadi. Baytning semantik markazida “gil” va “gul” obrazlari turadi. “Gil” insonning tabiiy, dastlabki holatini anglatadi, “gul” komil va fazilatli shaxs timsoli sifatida talqin etiladi. Bu yerda tashbeh san’ati orqali inson tabiatining muhit ta’siriga ochiqligi konseptual asosda ifodalanadi. Gilning gul bilan hamsuhbatlik natijasida muattar bo‘lishi – axloqiy sifatlarning ijtimoiy transmissiyasi (uzatilishi) g‘oyasining poetik modelidir. Mazkur hikmatda muallif shaxs kamolotini deterministik yondashuv asosida emas, balki tarbiyaviy va muhit omillari bilan izohlaydi. Ya’ni, insondagi fazilatlar uning tug‘ma xususiyatlaridan ko‘ra, ko‘proq uning ijtimoiy aloqalari va hamsuhbatlarining ma’naviy darajasiga bog‘liq ekani ilgari suriladi. Bu esa asarda axloqiy tarbiya va do‘st tanlash masalasini markaziy ijtimoiy qadriyat sifatida ko‘rsatadi. Shuningdek, baytda kamtarlik motivi ham mavjud: lirik subyekt o‘z fazilatlarini shaxsiy ustunlik sifatida emas, balki komil insonlar ta’sirining natijasi sifatida baholaydi. Bu jihat asarning didaktik xarakterini kuchaytiradi hamda uni axloqiy-nasihat janriga mansub ekanini tasdiqlaydi. Xulosa qilib aytganda, mazkur bayt inson shaxsining axloqiy kamolotida ijtimoiy muhit, xususan, do‘st va hamsuhbatlarning hal qiluvchi rolini nazariy-badiiy asosda ifodalaydi. Sa’diy bu orqali komillikka erishishning muhim sharti sifatida ma’naviy sog‘lom muhitni tanlash zaruratini ilgari suradi.

بنی آدم اعضای یکدیگرند

که در آفرینش ز یک گوهرند

[Bani-ādam a‘zā-ye yek peykarand]

[ke dar āfarineš ze yek govharand]

“Odam farzandlari bir tananing a‘zolaridir,
chunki ular yaratilishda bir xil mohiyatdandirlar”

Sa‘diyning bu bayti insoniyatning yagona mohiyatdan yaratilganini ifodalaydi. Shoir odamlarni bir tananing a‘zolariga qiyoslaydi: agar tananing bir a‘zosi og‘risa, boshqalari ham bundan befarq bo‘lolmaydi. Xuddi shuningdek, jamiyatdagi bir insonning dardi boshqalarga ham taalluqli bo‘lishi kerak.

Shu orqali Sa‘diy insonlar o‘rtasidagi hamdardlik, mehr-shafqat va birdamlik g‘oyasini ilgari suradi. Bu bayt asrlar davomida insonparvarlik timsoli sifatida mashhur bo‘lib, hatto United Nations binosida ham keltirilgan.

She‘rning keyingi mashhur satrlari ham shu fikrni davom ettiradi:

چو عضوی به درد آورد روزگار

دگر عضوها را نماند قرار

تو کز محنت دیگران بی غمی

نشاید که نامت نهند آدمی

Gar bir a‘zoga yetkazsa zamon ozor,

Boshqa a‘zolarga qolmas aslo qaror.

Gar sen beparvo bo‘lsang elning g‘amiga,

Seni “inson” demak loyiq emas nomingga.

Bu misra fors madaniyatida juda mashhur va ko‘p joylarda ishlatiladi: Insonparvarlik va hamdardlik haqida gapirganda, masalan, urush, ofat yoki muhtoj odamlar haqida. Maktab va universitetlarda ham axloqiy g‘oya sifatida o‘qitiladi.

Quyida yana Sa‘diyning asarlarida uchraydigan maqollarga ham qisqacha to‘xtalib o‘tamiz:

هر که عیب دگران پیش تو آورد

بی گمان عیب تو پیش دیگران خواهد برد

[Har ki ‘eyb-e digarān piš-e to āvard,]

[Bi-gumān ‘eyb-e to piš-e digarān xāhad bord.]

Tahlil: bu baytda insonni g‘iybatchilikdan ogohlantiradi, ya‘ni birovning aybini tashib yurgan odamga ishonib bo‘lmaydi chunki u ertaga sen haqingda ham xuddi shunday qiladi;

دشمن دانا به از دوست نادان

[Došman-e dānā beh az dust-e nādān]

Tahlil: “Nodon do‘stdan ko‘ra dono dushman afzaldir” ya‘ni dono dushman haqiqatni ochiq aytadi, kamchiligini ko‘rsatadi, ehtiyotkor bo‘lishga majbur qiladi. Nodon do‘st yaxshi niyatda

bo‘lsa ham, bilimsizligi sabab zarar yetkazadi, noto‘g‘ri maslahat beradi, hatto insonni halokatga olib borishi mumkin;

دروغ مصلحت‌آمیز به ز راست فتنه‌انگیز

[Doruy-e maslahat-āmir beh az rāst-e fetneh-angiz]

Tahlil: “Foydali yolg‘on fitnali rostdan yaxshiroq.” Ya‘ni yaxshilik yoki foyda maqsadida aytilgan yolg‘on, insonni yoki jamiyatni zarar ko‘rishdan saqlaydi. Ba‘zan esa rost gap esa haqiqat bo‘lsa ham, uni aytish fitna va muammoga sabab bo‘lishi mumkin. Hayotiy vaziyatlarda “haqiqatni aytish” etik jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi mumkin, lekin oqibatlar zararli bo‘lsa, maqsadli “yolg‘on” yaxshiroq tanlov bo‘lishi mumkin;

Bu maqol haqida Eron adabiyotshunosi Behruz Mahmudi shunday yozadi:

مقصود سعدی(در اینجا (این است که دروغ بد است اما اگر باعث نجات کسی شود یا از حادثه بدی جلوگیری کند . اشکال ندارد، به این سخن، دروغ مصلحت‌آمیز می‌گویند

Sa‘diy (bu yerda) shuni nazarda tutadiki, yolg‘on aslida yomon narsa. Ammo agar u biror kishining najot topishiga sabab bo‘lsa yoki yomon bir hodisaning oldini olsa, unda buning aybi yo‘q. Bunday gapga “maslahatli yolg‘on” deyiladi.

دوست آن است که در سختی یار تو باشد

[Dust ān ast ke dar saxti yār-e to bāšad]

Tahlil: “Do‘st – qiyinchilikda sen bilan bo‘ladigan kishidir” ya‘ni bu yerda do‘stlikni haqiqiy mezon bilan baholash ko‘rsatilyapti. Haqiqiy do‘st – shodlikda emas, balki qiyin paytda qo‘llab-quvvatlaydigan kishi. Ba‘zan odamlar shodlik paytida ko‘p do‘stga ega bo‘ladi, lekin sinov va qiyinchilik paytida ular kamayadi. Shu bois haqiqiy do‘stni aniqlash qiyin vaziyatlarda bilinadi;

عبادت به جز خدمت خلق نیست

[Ebādat be-joz xedmat-e xaly nist]

Tahlil: “xalq xizmatida bo‘lish ham ibodatdir” ya‘ni bu yerda Sa‘diy din va axloqni uyg‘unlashtiradi. Haqiqiy ibodat faqat o‘zi uchun emas balki amaliy ish va odamlar foydasi tegishi orqali ham namoyon bo‘ladi;

دل به دنیا مبنده که وفا ندارد

[Del be donyā maband ke vafā nadārad]

“Dunyoga ko‘ngil qo‘ymagin — u vafosiz”.

Sa‘diy bu yerda dunyo bilan bog‘lanishning chegarasini ko‘rsatadi, dunyo o‘tkinchi va sodiq emas. Haqiqiy barqarorlik – ma‘naviy qadriyat va Allohga bo‘lgan e‘tiqodda. Inson o‘z baxtini va ruhiy osoyishtaligini dunyodagi narsalardan qidirishga urinmasligi kerak. Haqiqiy sodiqlik va barqarorlik – Alloh va axloqiy qadriyatlarda.

جور استاد، به که مهر پدر :سختگیری معلم در یادگیری برای شاگرد بهتر از مهربانی و دلسوزی پدر است

Ustozning qattiqqo‘lligi – otaning mehridan yaxshiroqdir. Ya’ni, o‘qituvchining ta’lim jarayonida shogirdga nisbatan qat’iy va talabchan bo‘lishi, uning o‘qishi va kamoloti uchun otaning mehr-muhabbati va erkalatishidan ko‘ra foydaliroqdir.

Quyida Firdavsiy asarlaridagi hikoyalardan olingan zarbulmasallar keltirib o‘tiladi:

گهی پشت به زین و گهی زین به پشت

[Gāhi pošt be zin va gāhi zin be pošt]

“Ba’zan otning ustidadirsan, ba’zan ostida”

Bu misra zamonning o‘zgaruvchanligi ochib beradi, ba’zan u odamni istalgan kamolotga yetkazadi, orzu va xohishlarini amalga oshiradi. Ba’zan esa shunchalik orqaga qaytaradi-ki, butun mulki, uy-joyi va istaklari bir zumda yo‘qolib, halokatga yuz tutadi. Bu - vaqtning ikki yuzi, baxt va ofatning yonma-yonligi haqidagi hikmatdir;

نوشدارو پس از مرگ سهراب

[nuš-dāru bad az marg-e Sohrāb]

“Suhrob vafotidan keyin tabobatning foydasi yo‘q”.

Demak imkoniyatlar o‘tgan va unga endi yechim yo‘q. Bu maqolni bir katta muammoga yechim topilganda lekin endi allaqachon kech bo‘lganda ishlatiladi, yechimning topilgani mushkilni oson qilmaydi.

Xulosa. Tahlil natijalariga ko‘ra, Sa’diy Sheroziy va Abul-Qosem Firdovsiy asarlarida uchraydigan maqollar Sharq adabiy tafakkurining ikki muhim yo‘nalishini aks ettiradi. Sa’diy hikmatlari, ayniqsa uning “Guliston” asarida, asosan ijtimoiy-axloqiy tarbiya, insoniy fazilatlar, jamiyatdagi munosabatlar hamda ma’naviy yetuklik g‘oyalarini targ‘ib etishga qaratilgan. Bu maqollar insonning axloqiy kamoloti, ijtimoiy mas’uliyati va insonparvarlik qadriyatlarini shakllantirishda muhim didaktik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Firdavsiy ijodida esa hikmatli iboralar ko‘proq epik ruh, tarixiy xotira va milliy ongini mustahkamlashga xizmat qiladi. Uning mashhur asari “Shohnama” tarkibida uchraydigan maqol va hikmatli baytlar qahramonlik, donolik, vatanparvarlik va insoniy fazilatlarini ulug‘lash orqali xalqning tarixiy va madaniy o‘zligini ifodalashga qaratilgan.

Shu bilan birga, ikki adib ijodidagi maqollarning umumiy jihati shundaki, ular chuqur falsafiy va axloqiy mazmuni ixcham, poetik va esda qoladigan shaklda ifodalash xususiyatiga ega. Bunday hikmatli ifodalar Sharq adabiy an’anasida nafaqat estetik vosita, balki ijtimoiy-ma’naviy tajriba va xalq donishmandligining mujassam ifodasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan Sa’diy va Firdavsiy asarlaridagi maqollar Sharq adabiy tafakkuri, axloqiy-falsafiy qarashlari hamda milliy madaniy merosining muhim tarkibiy qismi sifatida alohida ilmiy tadqiq etishga loyiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

سعدی شیرازی. گلستان. - تهران، ۱۳۷۶. ۲۵۴ ص.

۲. سعدی شیرازی بوستان .- تهران ، ۱۳۶۳ .۴۰۸ ص
۳. فردوسی، شاهنامه .- تهران ، ۱۳۸۶ . ۱۰۲۴ ص
۴. سعدی شیرازی .منتخباتی از آثار سعدی .- تهران ، ۱۳۷۸ .۳۱۲ ص
۵. محمد معین . لغت‌نامه دهخدا .- تهران ، ۱۳۳۸ .۸۰۸ ص
۶. تألیف حسن انوری . فرهنگ بزرگ سخن .- تهران ، ۱۳۸۱ . ۲۳۲۰ ص
۷. علی‌اکبر دهخدا .امثال و حکم .- تهران ، ۱۳۷۷ . ۲۲۵۶ ص
۸. بهروز محمودی بختیاری .گزیده گلستان سعدی .- تهران ، ۱۳۸۸ . ۲۴۰ ص
۹. جعفر شهری .قند و نمک .- تهران ، ۱۳۶۹ . ۳۶۰ ص
10. <https://ganjoor.net>
11. www.iranketab.ir
12. <https://wikishahnameh.com>
13. <https://beytoote.com>
14. <https://daneshchi.ir>.